

## “YANGI O’ZBEKISTONNING 2022 — 2026 YILLARGA MO’LJALLANGAN TARAQQIYOT STRATEGIYASI”

**Muhammadjonov Ahadjon Azamjon o’g’li**

*Farg’ona viloyati yuridik texnikum*

*1-kurs “20-22” guruhi o’quvchisi*

“Yangi O’zbekistonning 2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasi” loyihasi. Bu keng ko’lamli chuqur o’zgarish hamda yangilanishlarning mantiqiy davomi, desak, mubolag’a emas. Xo’sh, buni nimalarda ko’rish mumkin?

Avvalo, 94 ta milliy maqsadni qamrab olgan, yettita ustuvor yo’nalishdan iborat Taraqqiyot strategiyasi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish orqali inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish asosida xalqparvar davlat barpo etishga yo’naltirilgan.

Taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish ham ko’zda tutilgan. Aslida ham inson kapitali Vatanimizda belgilanayotgan ulug’vor rejalarining izchil hamda muvaffaqiyatli amalgalashining asosiy omili.

Hozirgi davrda milliy inson kapitali hajmi jahonning taraqqiy etgan davlatlarida ular milliy boyligining 70 — 80 foizidan ortig’ini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 50 foizdan ko’proqni tashkil qiladi. Jumladan, AQShda bu ko’rsatkich 95 trillion dollardan, Xitoyda 25 trillion dollardan ortgan va ular milliy boyligining 77 foiziga tengdir. Umuman, jahonda inson kapitali 365 trillion AQSh dollariga yetadi, bu dunyodagi jami boylikning 66 foizi bilan barobardir.

Yana bir muhim jihat, BMTning Taraqqiyot dasturi tomonidan e’lon qilingan so’nggi — 2019 yilgi Inson kapitalini rivojlantirish indeksida O’zbekiston 0,720 ko’rsatkich bilan dunyoning 189 davlati o’rtasida 106-o’rinni egalladi. Bunda aholimizning tug’ilgan paytida kutilayotgan umr ko’rish davomiyligi 71 yil 7 oyga to’g’ri kelishi bashorat qilingan. 2019 yilda ta’lim olishning o’rtacha davomiyligi 11 yil 8 oyga, aholi jon boshiga to’g’ri keladigan yalpi ichki mahsulot 7142 dollarga teng bo’lgan. Vatanimizning ushbu ko’rsatkichlari Inson kapitalini rivojlantirishning yuqori indeksi darajasi qatoriga kiritilgan, biroq ana shu guruxdan o’rin olgan mamlakatlarning o’rtacha ko’rsatkichidan pastdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda inson kapitalini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor berilayotganligini ta’kidlash kerak. Hozirgi paytda Prezident

maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi" kabi zamonaviy va innovatsion ta'limga maskanlari tashkil etilgan. Keyingi 5 yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, 182 ming nafar yoshga, umumta'lim maktablarini tugallaganlarning 28 foizi uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Vaholan- ki, 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi.

Mamlakatimizda oliy ta'limga muassasalarining soni 77 tadan 153 taga yetdi. Ularning 104 tasi davlat, 30 tasi chet el, 19 tasi nodavlat oliy ta'limga muassasalaridir. O'zbekistonda 22 ta davlatning 60 ta oliy ta'limga muassasasi bilan qo'shma ta'limga dasturlari asosida bitiruvchilarga ikki tomonlama diplom berish yo'lga qo'yilgan. Agar yoshlarimiz 2018 yilda 15 ta chet el universitet va institutlarida ta'limga olish imkoniyatiga ega bo'lgan esa, 2021 yilda bunday oliy ta'limga muassasalarining soni 58 taga yetgan. Bu ayni chog'da o'z samarasini berayotir.

O'zbekistonda innovatsion texnologiyalarga asoslangan, yuqori qo'shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan zamonaviy korxonalar tashkil qilinyapti. Milliy iqtisodiyotimiz uchun sifat jihatidan mutlaqo yangi aerokosmik, quyosh energiyasi, "blokcheyn", "yashil iqtisodiyot" kabi sohalar shakllantirilmokda. Ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatining istiqbolli yo'naliшlarini aniqlash, xorijning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ixtisoslashtirilgan ilmiy-tajriba laboratoriylari, texnoparklar va boshqa innovatsion tuzilmalar, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish yuzasidan tizimli chora-tadbirlar ko'rilmokda.

Taraqqiyot strategiyasida 2026 yilgacha raqamli iqtisodiyotni tez rivojlantiradigan asosiy sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravarga, elektrotexnika sanoatida esa yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga oshirish, "yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish, "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohaga faol joriy etish ko'zda tutilmokda.

Bu maqsadlarga erishishda ta'limga sifatini tubdan oshirish, o'rta ta'limga tizimini zamon talablariga moslashtirish, oliy ta'limga qamrov da-rajasini 50 foizga yetkazish, qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga ko'tarish, 10 ta salohiyatli oliy ta'limga muassasasini jahonning "03" va "TNE" eng yaxshi universitetlari xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash vazifalari qo'yilgan.

2022 yilning o'zida Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida ka-mida bittadan nodavlat oliy ta'limga muassasasini tashkil etish orqali ularning jami soni 34 taga yetkaziladi.

Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliv ta'lismuassasalarining filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo'ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish ham rejalangan. Urganch davlat universiteti qoshiida Muhammad Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi tashkil etiladi.

"El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliv ta'lismuassasalariga o'qishga yuborish ko'lamin 2 baravarga oshirish hamda xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta'lism olishlarini yo'lga qo'yish ko'zda tutilmoxda.

Taraqqiyot strategiyasida ta'lism sifatini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022 yilda o'rta ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida umumiy o'rta ta'lismuassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish, yangi o'kuv o'rirlari yaratish, maktab o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarni davlat tomonidan kamida bir kasbni egallahiga ko'maklashuvchi tizimni joriy qilish ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, "...mamlakatimizda oliv ta'limga o'qishga kirishdagi korrupsiya deyarli yo'q bo'ldi. Lekin oliv ta'lismuassasalari ichidagi korrupsiya hamon saqlanib qolmoqda". Ta'litmiz tizimini, ayniqsa, oliv ta'limni korrupsiya illatidan butkul halos etishimiz zarur. Bunga faqat targ'ibot uchrashuvlarini ko'paytirish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish bilan erishib bo'lmasa kerak. Agar jamiyatda korrupsiyani yo'qotsak, ta'lism sifatini oshirsak, bu universitetlarimiz manfaatlariga xizmat qiladi, eng asosiysi, yoshlarnimizga zamonaviy sifatli ta'lism beriladi.

Ayni chog'da qayd etish joiz, oliv ta'lismuassasalarini bitirgan yoshlarning egallagan ixtisosliklari bo'yicha ishga joylashish muammosi saqlanib qolayotganligi ham ma'lum. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida oliv ta'lismuassasalarining barcha bitiruvchilarini faqat davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan ish bilan ta'minlashning imkoniyatlari cheklangan.

Shu bois fikrimizcha, Taraqqiyot strategiyasiga yirik kompaniyalar, birlashmalar, boshqa ish beruvchilar tomonidan manzilli buyurtma asosida oliv ta'lismuassasalariga milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasini kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi.

## VATAN

**Mamasiddiqova Bibioysha Komiljon qizi**

*Farg'ona viloyati yuridik texnikum*

*1-kurs "22-22" Yuridik xizmat yo'nalishi*

Vatan shunday muqqaddaski, u unson ruhiy olamida quyosh kabi yorqin porlaydi. Tanga quvvat, ruhga rohat, umrga mazmun bag'ishlaydi. Bu - aziz Vatan so'zi O'zbekistondir. U tabarruk Ona so'zi bilan yaqin qardosh turlaridir.

Dunyoda ona bitta, Vatan yagona bo'ladi. Bu tushuncha odamzodga qorong'ulikda adashganlarga yo'lchi yulduzdek.

Vatan haqida ming yillar davomida Sharq va G'arb olimlari mehr-muhabbat bilan yozganlar. Bolaligimizdan bizga tanish, ko'zga va qalbga yaqin uyimiz, maktabimiz, shahrimiz bog'lari, maydon va hiyobonlari, qishlog'imiz tog'u-tosh adir va qirlari-yu osmon o'par cho'qqilari ham vatandir...

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyoti yo'lidagi bosh g'oyasi-ozod va obod vatanda erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlaridir, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-ma'zmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak madaniy qadiryatlarni o'zilda mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasida ozodlik tushunchasining ustivor yetakchi urinda turishi Vatan mustaqilligi barcha orz u- intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi.

Vatan - insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandur.

U ajdoddlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan-ota bobolarmizning xoki-poklari joy bo'lgan, vaqt soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamindir.

Vatani bor odamning g'urur-iftihori yuksak, maksad-mudoalar aniq bo'ladi. Tog'dek tayanchi vatani borligini his etgan inson hayotning xar qanday sinovlardan bardosh bilan yengib o'tadi.

Vatanning ravnaqi, avvalo, uning farzandalari kamoliga bog'lik. «U esa xar bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamolati uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi.

Milliy g'oya hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. Vatanning ravnoqiga hizmat qilmaydigan g'oya hech kachon milliy g'oya bula olmaydi. U Vatan ravnaqini belgilab beradigan tamoyillarini o'zida aks ettirsagina kuch-qudratiga aylanada.

Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy kudrati ortayotgani, xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgan Vatan ravnaqini asosi bo'ladi.

Bu o'zgarishlar jarayoning ustivor xususiyati-xalqimizning bunyotkorlik faoliyatidir. Bunda ana shu bunyotkorlik salohiyatini tula yuzaga chiqarish, iqtisodiyotni ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, yoshlarimizni sog'lom va barkomol kilib voyaga yetkazish hal kiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yurt tinchligi-beboho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat uz taraqqiyotining barcha bosqichlarda, avvalo, tinchlik - totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovi.

Uzbek xalqi tinchligini yuksak qadirlaydi, uni uzi orzu intilishlari, maqsad-muddaolari ruyobga chiqishning kafolati deb biladi. Xolbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka kutariladi.

Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek Mavarounnahrga hukumronlik qilgan qiriq yil mobaynida mamlakatda tinchlik – barkarorlik ustivor bo'lgani sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan. Bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko'hna zaminimiz gullab-yashnagan.

Yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamalakatimizni tajavuskor kuchlardan himoya kilish doimo tayyor turishimiz lozim.

Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Xalkimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo'lgan g'oya jamiyati turlicha fikr va qarashga ega bo'lgan barcha kuch va xarakatlarni birlashtirishga va shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.